

## INTERNET OLAMI TAXIDLARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLARI

Rajabov Otamurod Rayimberdi o'g'li  
*Guliston davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada internet tarmog'ining salbiy hamda ijobiy jihatlari, internetdan oqilona foydalanish zaruriyati, xorijda b'layotgan axborotning salbiy xuruj oqibatlari hususida tizimli va tasdiqlangan ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, maqola yakunida yoshlarni internetning salbiy oqimlaridan qaytarish bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan zaruriy vazifalar alohida belgilab o'tilgan.*

**Kalit so'zlar:** *internet, yoshlar, madaniyat, tazovuzkorlik, diniy oqim, aldov, pornografiya, salbiy ma'lumotlar, kitob, sport, bo'sh vaqt, pedagog, ota-onas, ta'lim muassasasi, tarbiya.*

**Аннотация:** В данной статье представлены систематизированные и проверенные сведения об отрицательных и положительных сторонах Интернета, необходимости рационального использования Интернета, а также последствиях негативной атаки зарубежной информации. Также в конце статьи указаны необходимые задачи, которые необходимо выполнить, чтобы отвратить молодежь от негативных течений Интернета.

**Ключевые слова:** *Интернет, молодежь, культура, насилие, религиозное направление, обман, порнография, негативная информация, книга, спорт, свободное время, педагог, родители, образовательное учреждение, образование.*

**Anontation:** *This article presents systematic and verified information about the negative and positive aspects of the Internet, the need for rational use of the Internet, and the consequences of the negative attack of foreign information. Also, at the end of the article, the necessary tasks that must be carried out in order to turn young people away from the negative currents of the Internet are specified.*

**Key words:** *Internet, youth, culture, abuse, religious trend, deception, pornography, negative information, book, sport, free time, pedagogue, parents, educational institution, education.*

Global axborotlashuv asri nomi bilan tarixga kirgan XXI yuz yillikda ham bag'rikenglik tushunchasi o'ta dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalari, xususan, Internet insoniyat jamiyatining barcha jabhalariga shiddat bilan kirib borayapdi. Ayniqsa, Internetning imkoniyatlari keng va cheksiz bo'lib, u gazeta, radio va hatto televideniyedan ko'ra ham kuchliroq ta'sirga ega. Lekin uning o'ziga yarasha ayrim salbiy tomonlari ham mavjud. Internetning ijtimoiy tarkibi turfa xil ekanligi qator muammolarni keltirib chiqarmoqda. Kishilik jamiyatida siyosiy, ma'naviy, axloqiy, diniy, etnik va boshqa kuchlarning muvozanati muayyan darajada mavjud bo'lsa hamki, Internet tarmog'ida bunday tenglikni ko'rmasiz. Bunday ahvol boy ma'naviy va milliy an'analarga to'g'ri kelmaydigan, virtual olamning o'zigagina xos

bo'lgan Internet "madaniyati"ni yuzaga keltirdi. Tarmoq ichida insoniyatga qarshi, yoshlarga qarshi tajovuzlarni ko'rishingiz mumkin. Internet nazoratsizlik tufayli giyohvand moddalarni targ'ib etib, axloqsizlik, zo'ravonlik, qotillik va terrorchilikka undovchi resurslar bilan to'lib-toshgan tajovuzkor axborot makoniga aylanib bormoqda.

Bugungi kunda tarmoq targ'ib qilayotgan jinoyatchilik va kiberterrorchilik jahon xalqlariga va har bir millatga jiddiy xavf tug'dirmoqda. Global tarmoqning boy imkoniyatlaridan turli ekstremistik, terrorchi tashkilotlar va guruhlar irqiy, diniy va boshqa turdag'i murosasizlikni targ'ib qilish uchun foydalanmoqdalar. Hozir Internetda axloqsizlik, zo'ravonlik va adovatga chorlovchi esktremistik hamda hayosiz (pornografiya) axborot resurslari nihoyatda ko'p.

Xalqaro tarmoqning har bir foydalanuvchisi turli toifadagi insonlarga, boshqa millat vakillariga nisbatan o'zining ijobiy yoki salbiy munosabati, qarashlari va g'oyalalarini erkin namoyon etish imkoniyatiga ega. Ya'ni Internetda har bir inson o'ziga xos "nashriyotchi"ga aylanadi. Bu hol esa, o'z navbatida keskin tusdagi, nafrat g'oyalari bilan sug'orilgan ma'lumotning hech moneliksiz keng tarqalishiga olib keladi.

Xalqaro terrorchi tashkilotlar ekstremizm, ayirmachilik va terrorchilikni targ'ib qiluvchi saytlarini hech qanday to'siqlarsiz Islomning turli radikal oqimlarining jihod va "kofirlar"ga qarshi g'oyalalarini targ'ib qilish uchun ishlatajdar. Shu kabi axborotlar nafaqat alohida olingan yagona bir yoki ikki davlat uchun, balki butun jahon hamjamiyati uchun katta xavf tug'diradi. Bunday saytlar terrorchilik hurujlarini amalga oshirishga undash bilan bir qatorda, ayirmachilik, diniy kelishmovchilik va millatlararo adovat kabi g'ayri insoniy tashviqotni tarqatadilar.

Terrorchilar tomonidan harbiylar va tinch aholini qyinoqlarga solish, ko'z ko'rib, qulq eshitmagan usullar bilan jazolash sahnalarini namoyish etish orqali keng qamrovli axborot terrori olib boriladi. Masalan, Iroqdag'i amerikalik fuqaroni "jazolash" sahnasi jahon afkor ommasini larzaga keltirdi. Bunday saytlar o'z internet-manzillarini (domen nomlari) boshqa mamlakatlarda ("com", "org", "info" kabi xalqaro "internet-makonlarda) joylashtiradilar. Islom terrorchi guruhlari umumjahon kompyuter tarmog'ining virtual makonida "muqaddas urush" – "elektron jihod" ham olib bormoqdalar.

Ekstremistlar o'z tarafдорларига kodlangan ma'lumotlarni yuborish uchun Internetdan keng foydalanadilar, elektron pochta orqali xabarnomalar tarqatib, ularni ommabop, shu jumladan, hayosiz (pornografik) saytlarga joylashtiradilar. Kiberterrorchilar asosan ommaviy bo'lgan Hotmail va Yahoo portallarining pochtasidan foydalanadilar, chunki, ularni tutib olish nihoyatda murakkab. Ular maxfiy xizmat tashkilotlariga noma'lum bo'lgan o'z do'stlari va qarindoshlarining elektron pochtasini ishlatajdar. "Al-Qoida", XAMAS, "Xezbollax" kabi tashkilotlar axborotni yaxshi shifrlay oladigan kompyuter dasturlaridan ustalik bilan foydalanib kelmoqdalar. Shifrning kaliti faqat ma'lumotni oluvchigagina ma'lum.

Mana shunday o'ziga xos "xilvatgoh"larda yashirilgan materiallar orasida terrorchilik hurujlarini amalga oshirish uchun ko'rsatmalar, rejalar, joylarning fotosuratlari va sxemalari bo'ladi. Amerika maxsus xizmat xodimlari tarqatgan ma'lumotlarga qaraganda, Usama Ben Loden o'zining telefoni AQSh milliy xavfsizlik xizmati tomonidan tekshirilayotganini sezib qolgach, Internetdan foydalanishga o'tgan. Virtual makonda hech kimni befarq qoldirmaydigan shunday axborot resurslar borki, ular orqali millatlara, dinlararo va irqiy murosasizlik keng targ'ib qilinadi. Shu kabi saytlar (ko'p hollarda etnik saytlar), asosan turli millat va e'tiqod vakillari, boshqa irqdagi insonlarga nisbatan nafrat va adovat tuyg'ulari to'lib-toshib, ularni kamsitish g'oyalari bilan sug'orilgan, Internet foydalanuvchilarini ularga qarshi kurash olib borishga da'vat etadi. Misol tariqasida AQSh Internet makonidagi "Osvensimdan yaxshiroq" ("Better Than Auschwitz") nomli saytni keltirish mumkin. Sayt noma'lum skinxed tomonidan yaratilgan. Uning bo'limlaridan birida negrning g'azabini keltirish uchun "tavsiyalar", ya'ni, haqorat so'zlar bor. Qora tanlilarga va shu jumladan, mayda millatlarga qarshi qanday qurolni ishlatish afzalliklariga doir tavsiyalar ham uchraydi. Eng ayanchli tomoni shuki, mana shunday "maslahat" bilan tanishgan har qanday ekstremist yoki millatchi jinoyatchilikka qo'l urishi turgan gap. Ushbu saytni yaratgan shaxsning no'malumligi, uni topishning hozircha iloji yo'qligi yoki o'ta murakkabligi bunday saytlarning ko'payishiga imkon tug'diradi. Sayt muallifi qonunga xilof ma'lumotlarni tarqatgani uchun mas'uliyat hamda jazoga tortilishini his etmaydi. Insoniyat tafakkurining o'sib borayotganligi, axborot texnologiyalarning shiddatli rivoji odamlarning osoyishta hayotiga tahdid solayotgan saytlar mualliflarini fosh etish imkonini hademay yaratadi, degan umiddamiz.

Yoshlarning ongini zaharlayotgan, ruhiy ta'sir qilayotgan resurslar – hayosiz (pornografik) saytlardir. Internetning Rossiya segmentidagi aksariyat axborot-qidiruv tizimlarining bosh sahfasida foydalanuvchining e'tiborini bevosita o'ziga tortadigan turli qiyofadagi behayo va andishasiz fotosuratlar mavjud.

Hayosiz (pornografik) resurslar mualliflari bunday fotosuratlarni reklama qilish orqali Internet foydalanuvchilarini o'z saytlari bilan tanishish va u yerda namoyish etiladigan "xizmatlar"dan foydalanish uchun undaydilar. Axloqsizlikni targ'ib qiluvchi shu kabi manbalar butun jahon hamjamiyati diqqat-e'tiborini befarq qoldirmayotganligi tabiiydir. Pornosaytlar aksariyat holda bunday axborotni qabul qilishga hali tayyor bo'lмаган yoshlarning ruhiyati va salomatligiga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazib, insoniyatning ma'naviy rivojiga putur yetkazishi mumkin.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida ushbu muammoni bartaraf etishning ishonchli vositalari ishlab chiqilmoqda. Pokiston hukumati global tarmoqdan foydalanayotgan fuqarolarining ma'naviy pokligini saqlab qolish maqsadida 1800 ta pornosaytlarni blokirovka qildi. Xitoyning milliy Internet domenida har qanday andishasiz fotosuratlarni aniqlagan insonga 240 AQSh dollari miqdorida mukofot berilishi va'da qilindi. Hozirga qadar 1125 ta hayosiz saytlar aniqlanib, 445 ta kishi hibsga olingan.

Internetning vatani-Amerika Qo'shma Shtatlarida mamlakat maktabalaridagi axborot texnologiyalarini shu mazmundagi saytlardan muhofaza etish uchun kontent filtrlar bilan ta'minlash maqsadida mablag' ajratilgan. Avstraliya ta'lif vazirligi barcha maktab va universitetlarda andishasiz saytlarga kirishni ta'qiqlash uchun 1,3 mln dollar sarf qildi. Isroilda esa, maxsus ultratovushli asbob ishlab chiqildiki, uning yordamida foydalanuvchining yoshini aniqlash mumkin. Agar u yosh bo'lsa, asbob uni avtomat ravishda hayosiz saytlarga kiritmaydi. Isroilning I\_Mature firmasi tomonidan ishlab chiqilgan ushbu uskuna foydalanuvchining yoshini uning mushtiga qarab belgilay oladi. AGR (Age Group Recognition, ya'ni "Mushtni baholovchi" nomini olgan bu uskuna kompyuterning klaviaturasiga joylashtirilgan.

Axborot texnologiyalari kundalik hayotimizga shiddatli odimlar bilan kirib borayapti. Buni quyidagi dalillardan ham yaqqol kuzatish mumkin: Hozirgi kunda O'zbekistonda Internet foydalanuvchilari soni 800 ming kishidan oshib ketdi. So'nggi uch yil mobaynida umumta'lim maktabalarida xususiy kompyuterlar 1.1 barobariga ko'payib, 59 ming 400 taga yetdi. Kollej va litseylarda esa, deyarlik ikki barobar ko'paydi.

Yoshlar ma'lumot olish maqsadida Internetning Rossiya va Amerika Qo'shma Shtatlari domenlaridagi resurslarga murojaat qilib, u yerda esa, ko'pincha axloqsizlik, dinlararo, millat va elatlararo dushmanlik, murosasizlik va adovatni targ'ib qiluvchi, respublikamizdagi haqiqiy vaziyatni buzib, noxolis baholaydigan, axborotdan foydalanuvchilarda davlatimiz olib borayotgan siyosatga ishonchsizlik uyg'otuvchi, yurtimizda tartibsizliklar, beqarorlik keltirib chiqarishga da'vat etuvchi xabarlarga duch keladilar.

Lekin internet ko'plab foydali jihatlari bilan birga salbiy oqibatlarini ham namoyon qilmoqda. Aholida ayniqsa **yoshlarda** axborot iste'moli madaniyatining sustligi, turli xabarlar oqimidan kerakligini ajratib olishda bilim, malaka va ko'nikmaning yetishmasligi ba'zilarning g'arazli kimsa va oqimlar ta'siriga tushib qolishlariga, internet qaramligi kasalligiga yo'liqishlariga sabab bo'lmoqda. Xitoy Xalq Respublikasida internetga qaramlik kasallik sifatida e'tirof etilib, uni davolovchi maxsus shifoxonalar tashkil etilgani so'zimizning isbotidir.

Global tarmoq natijasida yuzaga kelgan eng katta muammo, bu, albatta, qaramlik, tobelik kasalligidir. Yoshlarning ko'p vaqtini inernetda o'tkazishlari global muammoga aylanib ulgurgan. Bugun internet ayrim yoshlar uchun mashhur yozuvchi Xudoyerdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib" asari qahramoni Hoshimjon topib olgan sehrli qalpoqchadir.

Umuman, internetga qaramlikning eng og'ir jihat real olamni, insoniylik burchi va vazifalarini unutishdir. Inson haqiqiy hayotda yashashi, halol mehnat qilishi, ilm olishi, zimmasidagi vazifalarini sidqidildan bajarishi, elu yurtiga fidoyilik bilan xizmat qilishi, atrofdagilarga foya keltirishi zarur.

Internetda ko'p vaqtini o'tkazadigan insonning ruhiyatida mavhumlik va o'z qobig'iga o'ralib olish holati kuzatiladi. Bu esa uni kelajakda "uchinchchi kuchlar"

tomonidan manqurtlashishi, zombilashtirilishi uchun zamiin yaratadi. Bugungi kunda buzg'unchi guruhlar yoshlar ongiga ta'sir qilishda asosan internetdan foydalanayotganlari beziz emas.

Internetning yana bir salbiy jihat-kishilardagi xudbinlik, manmanlik, zamonaviy tilda ifoda etganda, egosentrism illatining kuchayishiga sabab bo'lishidir.

Xo'sh biz pedagoglarni yoshlarni internetning salbiy tomonlaridan qanday himoya qilolamiz. Birinchi o'rinda talaba-yoshlar o'rtasida internetdan to'g'ri va manfaatli foydalanish bo'yicha targ'ibot ishlarini uzlucksiz ravishda olib borishimiz, shuningdek, salbiy oqibatlarning keltirib chiqaradigan salbiy natijalari haqida ham ishonchli manbalarni ko'rsatib borishimiz zarur.

Ikkinchidan, imkon darajasida oliy o'quv yurtlarida "Telefonsiz -Ta'lim" tizimini bosqichma-bosqich amalga oshirish samaralidir.

Uchinchidan, yoshlarni kitobga va sportga bo'lgan qiziqishlarini oshirish uchun, ular o'rtasida yutuqli musobaqalarni tashkil etib borish zarur.

To'rtinchidan, ya'ni eng muhimi ota-onalar bilan hamkorlikni mustahkamga yo'lga qo'yish lozim.

Bu kabi chora-tadbirlarning bir qancha samarali usullarini sanab o'tishimiz mumkin. Eng avvalo, qaysi usuldan foydalanish pedagogning kasbiy mahoratiga ham tom ma'noda bog'liq.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Marchenkova "Talabalarda kompyuterga qaramlikning oldini olishning ijtimoiypedagogik jihatlari" darslik 2009-yil
2. Glister "Yangi internet – navigator" ingliz tilida 1996-yil.
3. Nolden "Sizning birinchi internetga kirishingiz" 2006-yil.
4. G'aniyev "Internetning ijobiy va salbiy tomonlari" 2003-yil
4. Umarov.B, Qodirov. U, Karimov.X. Ochiq axborot tizimlarida axborot psixologik xavfsizlik:darslik. T., 2012.-239. b.)
5. Nekboyev X. Ta'limda axborot kommunikasiya texnologiyalaridan foydalanish// Globalashuv jarayonida innovasion pedagogik texnologiya – ta'lim – tarbiya samaradorligini oshirishning muhim ijtimoiy omili: Respublika ilmiy – amaliy konferensiyasi. – Qarshi, 2016.